

## Yangi Konstitutsiya – Taraqqiyot Qomusi

**Mashrab Muhammadiyev**

O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Millat ozodligini, hurligini his etib yashashi, mustaqillik deb atalguvchi behad buyuk va suyuq ne‘matdan bahramand bo‘lib, o‘z orzu-o‘ylari, faraxbaxsh umidlari, manfaatli maqsadlari yo‘lida emin-erkin mehnat qilishi, ilmiy izlanishlar olib borishi, ijod bilan xotirjam mashg‘ul bo‘lishi inson uchun ta‘rifga til ojiz oliy saodatdir. Yangi konstitutsiya tom ma‘noda umidbaxsh o‘ylarga payvasta qonun hamdir.

**Kalit so‘zlar:** yangi konstitutsiya, islohotlar, qomus, demokratiya, inson huquqlari, qonun ustuvorligi.

Dangal aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi xalqimiz va mamlakatimiz hayotida o‘ziga xos yirik voqea bo‘ldi. Mustaqillikka erishgach, mamlakatimiz taraqqiyotidagi ijobiy o‘zgarishlar, yangilanish va yutuqlar zamirida asosiy qomusimiz bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yotadi.

Mamlakatimiz mustaqilligiga erishganidan buyon xalqimiz ana shunday asrlarga badal ezgu maqsadlar og‘ushida yashab, yurt kelajagi uchun beminnat mehnat, ilm va ijod bilan taraqqiyot dovonlarini oshmoqda. Chin ishonch va e‘tiqod bilan aytish mumkinki, erishayotgan barcha yutuqlarimizning hayotbaxsh manbai bo‘lgan Qomusimiz ma‘naviy hurriyatimiz va erkinliklarimiz kafolati, mamlakat taraqqiyotining mustahkam qo‘rg‘oni, kelajagimizning aniq asosi ekanini o‘zida aks ettiradi.

Adabiyotlarda “konstitutsiya” so‘zi lotinchadan olinganligi va “tuzilish”, “tuzuk” ma‘nolarini ifodalashi ta‘kidlanadi. Davlatning asosiy qonuni bo‘lishi barobarida davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradigan muhim manba hisoblanadi. Shu ma‘noda konstitutsiya mavjud qonunlarning ishlab chiqilishida asos bo‘ladigan poydevor hisoblanadi.

Dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilib berilgan bir elektron manbada shunday fikrlar qayd qilingan:

“Konstitutsiya davlatchilik belgisidir. Bir-biridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy (faktik) konstitutsiya tushunchalari bor. Yuridik konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma‘lum huquqiy normalar tizimi. Haqiqiy konstitutsiya esa — shunday munosabatlarning o‘zi, ya‘ni real mavjud munosabatlar. Konstitutsiya o‘z shakliga ko‘ra, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo‘linadi. Kodekslashtirilgan konstitutsiya — konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agar ayni o‘sha masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, u holda konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi. Aralash turdagi konstitutsiya parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud pretsedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharxlarni ham o‘z ichiga oladi, ya‘ni qisman yozilgan bo‘ladi. O‘zgartirish kiritish usuli bo‘yicha konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo‘linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo‘li bilan

o'zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a'zolari ovozinig malakali ko'pchiligi, ba'zan esa referendum o'tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya sub'yektlari tomonidan ratifikatsiyalash) o'zgartirilishi mumkin. Amal qilish muddatlari bo'yicha konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo'linadi.”<sup>1</sup>

Darhaqiqat, Bosh qomusimiz millatning kelajakka bo'lgan ishonchini ta'minlaydigan qudratli vositadir. Ezgu maqsadlar sari bir jonu bir tan bo'lib harakat qilish va bu yo'lda uchrab turadigan sinovlardan o'tishida kamarbasta kuch bo'ldi. Bosh qomusimiz mamlakatda ijtimoiy g'amxo'rlik va insoniy xuquqlarni ta'minlashda sarzamin bo'lib xizmat qiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zbekiston XDP fraksiyasi a'zosi No'mon Akbarov “Konstitutsiya — hayotimizdagi ulkan o'zgarishlarning huquqiy asosi” nomli maqolasida shunday fikrni ilgari suradi: “Tarixda shunday kunlar, voqealar bo'ladiki, ular avlodlar xotirasida muhrlanib qoladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan kun biz uchun ana shunday unutilmas sana hisoblanadi. Shu bois, har yili mamlakatimizda 8 dekabr — Bosh qomusimiz qabul qilingan kun umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Mana, 29 yildirki, Konstitutsiya kunini ulug' bayram sifatida faxru g'urur bilan nishonlab kelmoqdamiz. Katta yoshdagi avlod vakillari yaxshi biladiki, sho'ro davrida yurtdoshlarimiz uchun Konstitutsiya so'zi yuzaki bir ma'no anglatib, shu nomdagi hujjat qachon qabul qilinganligi ko'pchilikni qiziqtirmasdi ham.”<sup>2</sup> Agar shunday bo'lganida belgilab qo'yilgan erkinliklar hayotda o'z ifodasini topmagan bo'lardi. “Adolat” SDPning elektron nashrida Samarqand shahar Kengashi deputati Muhiba Sayfiddinovaning “Konstitutsiya – baxtimiz poydevori” deb nomlangan bir maqolasi e'lon qilingan. Unda muallifning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: “Istiqlol tufayli xalqimizning xohish-irodasini o'zida aks ettirgan mustaqil mamlakatimizning Asosiy qonunini har birimiz baxtimiz qomusi, deb ulug'laymiz. Bu bebaho hujjatda huquq va erkinliklarimiz kafolatlangan, Bosh qomusimiz asosida qabul qilingan qonun hujjatlari har gal yangidan-yangi imkoniyatlar eshigini ochib, manfaatlarimiz ro'yobga chiqishi, tashabbuslar qanot yozishiga, o'z salohiyatimizni olam aro namoyon etishga xizmat qilib, mamlakatimiz taraqqiyotning yangi-yangi bosqichlarida dadil odimlamoqda.”<sup>3</sup>

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimizda inson huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi vosita sifatida demokratik qadriyatlar va ijtimoiy adolatni qaror toptirishda, xalqimizning baxtli hayot kechirishi hamda milliy bag'rikenglikni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Mamlakatimizning turli jabhalarida amalga oshayotgan ulkan o'zgarishlarda Bosh qomusimizning o'rni beqiyos. Konstitutsiyamiz asosida amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi bugun xalqimiz orasida sezilayotgani kabi xalqaro miqyosda ham keng e'tirof etilmoqda. Unda har bir shaxsning ijtimoiy mavqei, mehnat qilish, himoyalani, dam olish, mehnat layoqatini yo'qotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy ta'minot olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va boshqa qator huquqlari kafolatlanganligi demokratik tamoyillarga asoslanganligiga dalil bo'ladi.

Shuningdek, aytish mumkinki, mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarda, qabul qilinayotgan qonun va hujjatlarda inson sha'ni, huquq va erkinliklarini har qanday holatda ham eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etish g'oyasi o'z ifodasini topganki, bu barcha demokratik davlatlarning qonunchiligida bosh tamoyil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining eng muhim tamoyili har bir O'zbekiston fuqarosining huquq va erkinliklari, kafolatlarini ta'minlashga qaratilgani e'tiborga molikligi bilan belgilanadi. Aslida ham har qanday mamlakatning Konstitutsiyasi o'sha yurt fuqarolarining huquq va erkinliklarini kafolatlashga, mamlakatni dunyoga tanitadigan siyosiy xarita, mustaqillikni ta'minlab bergan davlatning pasporti sifatida tan olinishiga asos bo'ladi. Mamlakatimizning Bosh qomusi xalqimizning boy va rang-barang hayot tajribasiga asoslangan holda yurtimiz aholisining milliy va

<sup>1</sup> Мазкур мақола манбаси учун қаранг: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konstitutsiya>

<sup>2</sup> Н.Акбаровнинг Конституция — ҳаётимиздаги улкан ўзгаришларнинг ҳуқуқий асоси мавзусидаги мақоласи учун қаранг: <https://meningfikrim.uz/uz/news/view/237>

<sup>3</sup> Муҳиба Сайфиддинованинг “Конституция – бaxтимиз пойдевори” деб номланган мақоласи учун қаранг: <https://adolat.uz/deputat-faoliyati/konstituciya-baxtimiz-pojdevori>

madaniy an'analariga, turli ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlariga mos keladigan haqiqiy demokratik tamoyillarni o'zida aks ettirishiga mas'uldir.

Mutaxassislarninggina emas, balki vatanimizning barcha fuqoralari ham Konstitutsiyamiz haqida o'z e'tirofini tilga keltirishmoqda. Quyidagi fikr shahrimizning "Jome" jome masjidi imom-xatibi Odiljon Narzullaevga tegishli. U "Konstitutsiya – jamiyatning huquqiy asosi" deb nomlangan maqolasida fikrlarini shunday bayon qiladi: "Asosiy qonunimiz jahon me'zonlari talablariga javob beribgina qolmay, xalqaro miqyosda namuna bo'lgulik huquqiy hujjat ekanini ham ko'rsatadi. Bu mazmundagi e'tiroflarga o'z-o'zidan sazovor bo'lingani yo'q. Chunki bunday darajadagi huquqiy hujjatni tayyorlash, qabul qilish va uncha-muncha tasavvurlardagi ishlardan ham mas'uliyatliroq va murakkabroqki, buni anglash uchun birinchi Prezidentimizning quyidagi fikrlarini yana bir bora yodga olish o'rinli: «Tabiiyki, har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan, Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan Qomusnomadir. Asosiy Qomusimiz xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongi va madaniyatini aks ettiradi. Bir so'z bilan aytganda, Konstitutsiyamiz tom ma'noda xalkimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir.»<sup>4</sup> U fikrlarini davom ettirib shunday yozadi: "Mamlakatimiz xalqi murakkab tarixiy jarayonni boshdan kechirdi. Barcha qiyinchilik, jabr-zulm va adolatsizliklarga qaramay, buyuk ajdodlarining munosib avlodlari, jahonga dovrug'i ketgan mashhur allomalarning konuniy vorislari ekanini har tomonlama isbotladi. Allohning lutfu karami ila aziz istiqloqlga erishdi. Nurli kelajak sari katta ishonch bilan qaramoqda va ulug' orzulariga yetmoqda."

Xulosa qilib aytganda milliy qadriyatlarga asoslangan yangi Konstitutsiyamiz oliy darajadagi qonun sifatida davlatimizning shaklu shamoyilini, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzumini, boshqaruvining demokratik tamoyillarini, jamiyat rivojlanishining strategik yo'nalishlarini, fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlanganligini, ma'naviy qadriyatlarimiz asoslarini mustahkamlab beradigan bebaho qonundir.

Bir so'z bilan aytganda, Yangi Konstitutsiyamiz Yangi O'zbekistonning mustahkam poydevori va demokratik davlatchiligimizning tamal toshidir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Manba: [constitution.uz/uz](http://constitution.uz/uz)
2. Konstitutsiya. Manba: [uz.wikipedia.org/wiki/Konstitutsiya](http://uz.wikipedia.org/wiki/Konstitutsiya).
3. Akbarov N. Konstitutsiya — hayotimizdagi ulkan o'zgarishlarning huquqiy asosi. Manba: [meningfikrim.uz/uz/news/view/237](http://meningfikrim.uz/uz/news/view/237)
4. Sayfiddinova M. Konstitutsiya – baxtimiz poydevori. Manba: <https://adolat.uz/deputat-faoliyati/konstituciya-baxtimiz-pojdevori>.
5. Narzullayev O. Konstitutsiya – jamiyatning huquqiy asosi. Manba: [muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/1884-konstitutsiya-zhamiyatning-u-u-ij-asosi](http://muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/1884-konstitutsiya-zhamiyatning-u-u-ij-asosi)
6. Shermanov, E. "Role of mass media in the formation of participatory education in the context of globalization." (2021).
7. Шерманов, Элдор. "ИНСОН–ЎЗ ХАЛҚИ ТАҚДИРИГА ЛОҚАЙДЛИГИ ИЖТИМИЙ-ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА." *Scientific progress* 3.6 (2022): 64-70.
8. Нуруллаев, А. С. "К ВОПРОСУ МЕТОДОЛОГИИ ТЕХНОЛОГИИ РЕАЛИЗАЦИИ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ." *Экономика и социум* 8 (99) (2022): 268-278.
9. Нуруллаев, Абдулазиз. "Мировой страховой рынок и тенденции его развития." *Архив научных исследований* 4.1 (2022).

<sup>4</sup> <http://old.muslim.uz/index.php/rus/maqolalar/item/1884-konstitutsiya-zhamiyatning-u-u-ij-asosi>

10. Нуруллаев, Абдулазиз. "Қишлоқ хўжалигидаги институционал ўзгаришлар шароитида давлат қўмаги асосида рискларни суғурталаш методологиясига янгича ёндашув хусусида." *Экономика и инновационные технологии* 5 (2019): 117-126.
11. Нуруллаев, А. С. "Вопросы страхования фермерских хозяйств в Узбекистане." *Актуальные проблемы современной науки* 2 (2004): 116.
12. Nurullaev, Abdulaziz Sirojiddinovich. "The Model of Insurance Protection of Business in the Agricultural Sector in the Context of Institutional Transformations." *International Journal of Business, Economics and Management* 4.2: 344-349.
13. NURULLAEV, AS. "To the Question of Methodological Bases of Future Harvest Insurance in Agriculture." *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology* 7.05: 329-333.
14. Nurullaev, Abdulaziz Sirozhiddinovich. "Improvement of agricultural insurance as a factor of development of agrarian industry in the country." *CREATION OF ETHNOGRAPHIES WITH POPULAR TRADITIONS* 11.13: 45.
15. Нуруллаев, А. С. "ИЖТИМОЙ-МАДАНИЙ ФАОЛИЯТ БОШҚАРУВИДА МЕНЕЖМЕНТИНГ ЎРНИ." 95.
16. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE* 2.9 (2023): 19-23.
17. Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.9 (2023): 7-10.
18. Abatbaevna, Saparbaeva Gulshira, and Qolqanatov Asilbek Nazarbaevich. "History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan." (2023).
19. ЮЛДАШЕВА, Манзура, and Асылбек КОЛКАНАТОВ. "ПУТИ ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ В СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ СРЕДЕ." *Journal of Culture and Art* 1.1 (2023): 16-20.
20. Zokirovich, Muminmirzo Kholmuminov, and Asilbek Kolkhanatov Nazarbaevich. "A LOOK AT THE HISTORY OF CLUB ESTABLISHMENTS AND CULTURAL AND EDUCATIONAL PROCESS IN UZBEKISTAN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.2 (2022): 37-44.
21. Юлдашева, Манзура, and Асылбек Колканатов. "OILAVIY DAM OLISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY VA MADANIY MARKETING." *Scientific journal of the Fergana State University* 3 (2022): 6-6.
22. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "MUFASSAL MUSHOHADALAR ME‘MORIDAN MUFASSAL MUSHOHADALAR MEROJI." *Oriental Art and Culture* 3.2 (2022): 568-580.
23. Yuldasheva, Manzura, and Asilbek Qolqanatov. "O ‘ZBEKISTONDA MUZEY MENEJMENTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH XUSUSIYATLARI." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 254-260.
24. Xolmo‘Minov, Mo‘Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY ISHLAR VA KUTUBXONALAR FAOLIYATI (XX ASR TAJRIBALARIDAN)." *Oriental Art and Culture* 3.1 (2022): 281-290.
25. Kholmuminov, Muminmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "The Formation of the First Libraries in Uzbekistan and the Role of Increasing the Cultural and Educational Awareness of the Population." *International Journal on Integrated Education* 4.12 (2021): 146-151.

26. Kolkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH* 2.11 (2023): 67-69.
27. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
28. Kalkanatov, Asilbek, Shahabatdin Makhamatdinov, and Islam Urazbaev. "ACTIVITIES OF NEW KARAKALPAKSTAN CULTURAL CENTERS: REFORM AND ANALYSIS." *Art and Design: Social Science* 3.01 (2023): 1-4.
29. Xolmo'Minov, Mo'Minmirzo, and Asilbek Qolqanatov. "HIMMATNING QIYMATI ILM VA TAFAKKUR XAZINASI." *World of Philology* 2.1 (2023): 59-64.
30. Nazarbay o'g'li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." *Academic Integrity and Lifelong Learning (France)* 2 (2023): 15-21.
31. Nazarbai, Kolkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." *Journal of Innovation, Creativity and Art* 2.12 (2023): 65-70.